3rd MAY 2024



ISOC
INTERNATIONAL SCIENTIFIC ONLINE CONFERENCES

zenodo OpenAIRE

doi digital object identifier OPEN ACCESS

# NETHERLANDS

## INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS

info.interonconf@mail.ru

www.interonconf.org

ISOC
INTERNATIONAL SCIENTIFIC ONLINE CONFERENCES




# INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS

International scientific-online conference

Part 27

MAY 3rd

COLLETIONS OF SCIENTIFIC WORKS

AMSTERDAM 2024

TABLE OF CONTENTS


| | |
|---|---|
| **Eraliyeva Xurshida Mamarajab qizi**<br>**Rasulova Rayhon Baxritdinovna**<br>*UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA IMOM- BUXORIY HADISLARINI O'RGANISHNING AHAMIYATI* | 13 |
| **Ergasheva Nilufar Akramjon qizi**<br>*"ERKIN VOHIDOVNING TARJIMONLIK MAHORATI"* | 17 |
| **Abduvaxobov Shaxzod**<br>**Mamasiddiqov Behro'z**<br>*O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TO'LOV BALANSI* | 21 |
| **Комилжонов Муҳаммадқодир Ҳикматулла ўғли**<br>*ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИДА ГУМОН ҚИЛИНУВЧИ, АЙБЛАНУВЧИ, СУДЛАНУВЧИ ВА БОШҚА ШАХСЛАРНИНГ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ* | 27 |
| **Abduvahobov Shaxzod**<br>**To`rabekov Samandar**<br>*BANK HISOBVARAG`I BO`YICHA SHARTNOMA, UNING TUZILISHI VA AHAMIYATI* | 38 |
| **Fayzulloyev Bobir Jobir o'g'li**<br>*KIBERXAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA TUZILADIGAN NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLARNING ASOSIY JIHATLARI VA AHAMIYATI* | 42 |
| **Tursunboyeva Mavjudaxon Shukurillo qizi**<br>*METHODS OF USING COMPUTER TECHNOLOGIES IN THE EVALUATION OF WRITING COMPENSATIONS OF NON-PHILOLOGY STUDENTS.* | 47 |
| **Кадирова Нозима Расулова**<br>*ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА* | 51 |
| **Ўроқов Музаффар Муҳиддинович**<br>*СУДЬЯЛАР ОДОБИ КОДЕКСИ МАЗМУН МОҲИЯТИ МАВЗУСИДА* | 56 |
| **Ibragimova Dilafruz Shukhratovna**<br>**Xolbekova Soliha**<br>*EXPLORING SATIRE AND SOCIETY IN JONATHAN SWIFT'S "GULLIVER'S TRAVELS DURING THE AGE OF ENLIGHTENMENT* | 61 |
| **Дилрабо Қувватова**<br>**Раҳима Шарипова**<br>*ЧЎЛПОН ШЕЪРИЯТИДА ШАМОЛ ВА БУЛУТ ОБРАЗЛАРИ* | 66 |
| **Laylo To'rayeva**<br>*O'ZBEK XALQ O'YINLARIDA "BOBODEHQON" KULTIGA OID QARASHLAR TALQINI* | 76 |

# O'ZBEK XALQ O'YINLARIDA "BOBODEHQON" KULTIGA OID QARASHLAR TALQINI

**Laylo To'rayeva**
*BuxDU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi,*
*filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)*

**Kalit so'zlar**: *"Bobodehqon", Xo'jayi Xizr, bolalar o'yinlari, maishiy o'yinlar, mehnat qurollari.*

**Annotatsiya**: *Bolalar maishiy o'yinlari sirasiga kiradigan "Bobodehqon" o'yini haqida ma'lumot beruvchi ushbu maqolada o'zbek dehqoni turmush tarzi, mehnat sharoitini o'zida aks ettirgan bu o'yin ko'pincha dehqonchilik kasbining asosiy mehnat qurollari: kichik ko'rinishda ishlangan belkurak, ketmoncha, o'roqcha kabilarni ifoda etuvchi o'yinchoqlar vositasida tashkil qilinib, ularda dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish va yig'ib olishga daxldor voqeliklarning obrazlantirilishi orqali bolalarning turmush voqeligiga munosabati ifoda etilgan jarayonlar haqida so'z yuritiladi.*

Xalqimiz turmush tarzi, kasb-hunarlariga oid ma'lumotlarni o'zida badiiy ifoda etuvchi bolalar o'yinlari maishiy o'yinlar sirasiga kiritiladi. Bunday o'yinlarda bolalar kattalarning u yoki bu mashg'ulotiga taqlid qilib, obrazlilik yaratadilar. U yoki bu kasb-hunarga taqlid qilib yaratilgan o'yinlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Ularda mehnatkash xalq vakili, ma'lum kasb-hunar egasining jonli obrazi yaratib beriladi. Jumladan, ba'zi bolalar o'yinlarida o'zbek dehqoni turmush tarzi, mehnat sharoiti aks ettirilganligini kuzatish mumkin. Bunday o'yinlar ko'pincha dehqonchilik kasbining asosiy mehnat qurollarini (kichik ko'rinishda ishlangan belkurak, ketmoncha, o'roqcha kabi) ifoda etuvchi o'yinchoqlar vositasida tashkil qilinadi. Ularda dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish va yig'ib olishga daxldor voqeliklar obrazlantirilishi orqali bolalarning turmush voqeligiga munosabati ifoda etiladi. Shu asosda bolaning u yoki bu voqea-hodisaga oid tasavvuri va bilimi yuzaga chiqadi.

Dehqonchilik haqidagi o'yinlar mazmunan bolalarning dehqonchilikka aloqador qarashlarini, mehnat predmetlarini ishlatish tajribasini o'zida ifoda etadi va shunisi bilan o'yinlarning alohida mavzuiy turini tashkil etadi. Ularda o'zbek dehqoni hayotini va mehnat sharoitini aks ettirish o'ziga xos poetic motiv sifatida shakllangan. shuning uchun o'zbek bolalarining dehqonchilik haqidagi o'yinlarining obrazlar tarkibini, syujet motivlarini, ijro maqsadi va

o'rnini, ijrochilarini, til xususiyatlarini alohida o'rganish lozim. Bu o'zbek bolalar o'yin folklorining tarixiy taraqqiyotini belgilab olishda muhimdir.

Ma'lumki, bahor kelishi bilan qish bo'yi uyda zerikib o'tirgan bolalarning qizg'in o'yin davri boshlanadi. Shuningdek, bahor kelgach, dehqon-u chorvadorlarning ham yumushlari jonlanadi. Dehqon yerini haydash va ekishga kirishsa, chorvador qo'ylarni qirqish, chorvani yaylovga haydash kabi ishlarni boshlab yuboradi. Bu paytda tabiatan o'yinqaroq bolalar kattalar yoniga suqilib, ular bilan teng kuymalashishadi. Ana shu jarayonda bolalar kattalar faoliyatiga taqlidan o'z o'yin repertuarlarini yaratib ulgurishgan.

O'tmishda bahor kelishi bilan turli agrar marosimlar o'tkazilgan. Ko'pincha dalaga ekin ekishdan boy va to'kin yashaydigan bir keksaroq lishi ustiga tolbargaklar tashlab olib, "Bobodehqon" timsolida bo'lajak hosilga qut-baraka tilab olqish ayttirilgan. Bu udum xalqning Bobodehqon haqidagi e'tiqodiy qarashlari ta'sirida kelib chiqqan. Tabiiyki, bunday agrar rituallarda bolalar ham ishtirok etishgan. Shuning uchun bolalarning ayrim qadimiy o'yinlarida bunday marosimlarning izlari yaxshigina saqlanib qolgan. Hatto bolalarning bahorgi mavsum o'yinlari alohida tizim ko'rinishida shakllangan. Ularda bahor tufayli tabiatning qayta tug'ilishi, dehqonchilik yumushlarining mohiyati, hosildorlik kultlariga e'tiqod motivlari ifoda etiladi. Bunga qadimgi "Bobodehqon" o'yinining mazmunini misol keltirish mumkin. Uni taniqli udumshunos E.M.Peshcherova yozib olgan. Bu o'yinning kelib chiqishi haqida N.Safarova ayrim qimmatli mulohazalarni ilgari surgan.

"Bobodehqon" o'yini odatda bahor yoki yoz oqshomlarida gulxan atrofida yig'ilib, davra bo'lib o'ynaladi. Davradagilar oldiga novda va yaproqlardan ustiga maxsus kiyim kiyib olgan "Bobodehqon" rolidagi bola yelkasida yana bir kichkinagina bolani ko'tarib olganicha kelib, o'tirganlardan niyat-istak so'raydi. Bolalar undan barakali hosil tilaydilar. Bobodehqon esa buning evaziga bolalar bilan savdolashadi. U savdolashgunga qadar yelkasidagi bolakay – uning o'g'li – "hosil ramzi" tushib qochib ketadi. Bobodehqon "hosil" ketidan quvadi. Davradagilar esa "hosil" bolani o'zlarida saqlab qolishga urinadilar. Bobodehqon o'g'lini topib ololmagach, davradagilarga do'q-po'pisa qiladi. O'rtada yonib turgan gulxanga har xil narsalar tashlab, uning uchqunlarini sachratib, davradagilarni qo'rqitmoqchi bo'ladi. Lekin o'tirganlar bundan qo'rqmaydilar va qiy-chuv ko'tarib, kula-kula har tomonga qochadilar. Bobodehqon o'g'li dardida birdan yiqilib "o'ladi". Lekin u yana bir ozdan keyin qayta tirilib, kulib o'rnidan turib ketadi. Bu bilan tabiatning "o'lib" qayta

tirilishiga – dehqonchilik mavsumining har yili yangilanib turishiga ishora qilinadi.

Bobodehqon obrazida kishilarning hosildorlik kulti bilan bog'liq qarashlari mujassamlangan. Ba'zan Xo'jayi Xizr obrazi ham shu vazifada talqin qilinishi kuzatiladi. Ular odamlarga hamisha homiylik qilib kelishi e'tirof etiladi.

Xullas, xalq yaratgan o'yinlar bolalarga cheksiz zavq va orom bag'ishlaydi va madaniy-ma'naviy merosimiz bilan ularni yaqindan tanishtiradi. O'yinlardan bolalarga ta'lim-tarbiya berishda keng va samarali foydalanish mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**


1. Turaeva, L. O. (2021). Artistic and compositional features of harvest songs. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, *10*(4), 629-634.
2. Тўраева, Л. О. (2024). ЎЗБЕК ДЕҲҚОНЧИЛИГИДА ТАҚВИМ РАМЗЛАРИ. *IMRAS*, *7*(1), 779-783.
3. Тўраева, Л. О. (2023). ЎЗБЕК ХАЛҚ ОҒЗАКИ ИЖОДИДА ДЕҲҚОН ОЛҚИШЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ИФОДАСИ. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, *2*(24), 22-25.
4. Тўраева, Л. О. (2023). ДЕҲҚОНЧИЛИК ҚЎШИҚЛАРИ ЖАНРИНИ БЕЛГИЛАШДА КАСБИЙ АТАМАЛАРНИНГ ЎРНИ. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, *2*(22), 66-70.
5. Тўраева, Л. О. (2022, June). Мақолларда деҳқонлар ҳаётининг бадиий талқини. In *E Conference Zone* (pp. 71-73).
6. To'rayeva, L. (2021). ЎЗБЕК ЗИРОАТШИЛИГИДА МОШГА МУНОСАБАТНИНГ ФОЛЬКЛОРДАГИ БАДИИЙ ТАЛҚИНЛАРИ ХУСУСИДА. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, *7*(7).
7. Omonovna T. L. Artistic understanding of peasant life in proverbs //Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences. – 2022. – Т. 9. – С. 47-49.
8. TORAYEVA, L. (2023). ЎРИМ ҚЎШИҚЛАРИНИНГ ОБРАЗЛАР ТАРКИБИ ВА БАДИИЙ-КОМПОЗИЦИОН ХУСУСИЯТЛАРИ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, *42*(42).
9. Omonovna, T. L. (2024). A Hymn of Divine Ideas in the Wisdoms of Yassavi. *International Journal of Formal Education*, *3*(4), 34-39.
10. Turaeva Laylo Omonovna. A PECULIAR EXPRESSION OF PEASANT APPLAUSE IN FOLKLORE. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH: a collection scientific works of the

International scientific conference (11 April 2024) - Berlin:2024. Part 33 – 327 p. 212-220 p.

11.Quvvatova D., Karimova Sh. Artistic Functions of Anaphora in Modern Uzbek Poetry// Journal of Positive School Psychology http://journalppw.com 2022, Vol. 6, No. 5, 6270 – 6274.

12.Quvvatova D., Sharipova R. The graduality of nature symbols in folk lyrics and classical poetry // A Journal for New Zealand Herpetology. BioGecko. Vol 12 Issue 03 2023 ISSN NO: 2230-5807.

13.Quvvatova D., Barotova M.Transference of National Peculiarities in the Novel "The Din" by E.A'zam. International Journal of Engineering and Advanced Technology (IJEAT). ISSN: 2249 – 8958, Volume-8, Issue-5S3 July 2019.

14.Quvvatova D. World and Uzbek poems: comparison and analysis. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. p-ISSN: 2308-4944 (print) e-ISSN: 2409-0085 (online).Year: 2020 Issue: 04 Volume: 84.Published: 30.04.2020 http://T-Science.orgю.

15.Quvvatova D., Sohibova Z. Symbolic Description of the Year Seasons in Uzbek Poetry. International Journal of Engineering and Advanced Technology (IJEAT). ISSN: 2249 – 8958, Volume-8, Issue-5S3 July 2019.

16.Latipov H. R. ALISHER NAVOI ON LOVE, ENLIGHTENMENT AND AWARENESS //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 6. – С. 551-556.

17.Ramazonovich L. H. Souls striving to god or from the world of wise people //Journal of Social Sciences and Humanities Research. – 2018. – Т. 6. – №. 04. – С. 14-18.

18.Ramazonovich L. H. Symbolism, Allusion and Essence in the Work of Turkigoi Songs //International Journal of Formal Education. – 2024. – Т. 3. – №. 4. – С. 20-28.

19.Baxtiyorovna, N. N. ., & Latipov, H. R. . (2024). Expression of Common Ideas and Images in the Creations of Navoy and Pushkin. *International Journal of Formal Education*, *3*(4), 46–53. Retrieved from http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/2479

20.Ramazonovich, L. H. . (2024). Symbolism, Allusion and Essence in the Work of Turkigoi Songs. *International Journal of Formal Education*, *3*(4), 20–28. Retrieved from http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/2474

21.Охунжон Сафаров. Бухоро адабий ҳаракатчилиги тарихининг айрим манзаралари. Бухоро-2012.